

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2021 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief:	Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov
Executive secretary:	Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Nergis Biray, Süveyda Şahin

Özbekçede Kullanılan Türkçe Kökenli Hastalık Terimleri (Baş Bölgesi).....6

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik.....30

Sharif Yoqubov

Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida.....54

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Islom renessansida Markaziy Osiyo turkiylarining roli.....67

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Temuriylar renessansida musiqa san'ati.....91

Fatih Gür

Türk kültüründe renkler102

CONTENT

Linguistics

Nergis Biray, Suveyda Shahin

Disease Terms of Turkish Origin used in Uzbek (Head Region).....6

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Herman Vamberi is a researcher of classical literature.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat and Jadidism in Bukhara.....30

Sharif Yokubov

Besutun's works as interpreted by Alisher Navo'i.....54

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

The role of the Turks of Central Asia in the "Islamic Renaissance".....67

Art

Oqilkhon Ibrohimov

Musical art of the Timurid Renaissance.....91

Fatih Gur

Colors in Turkish culture.....102

SAN'AT
ART

Temuriylar renessansida musiqa san'ati

Oqilxon Ibrohimov¹

Abstrakt

Buyuk Amir Temur davrida shakllangan ilg'or musiqa an'analari sulola davomchilar - Temuriy hukmdorlar saroyida mumtoz san'at timsoli o'laroq munosib davom ettirilgan edi. Ularning fan va san'at namoyandalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va yaratib bergen shart-sharoitlari asnosida ilm jahhalari ravnaq topdi, musiqa sohasining ijtimoiy-madaniy ahamiyati benihoya ortdi, kasbiy ijod va ijrochilik san'atlari yangi sifat bosqichiga yuksaldi.

Bu davrda, ayniqsa, maqom san'ati misli ko'rilmagan darajada ravnaq topgan. Xususan, saroy madaniyatida nufuzli o'r'in tutgan O'n ikki maqom tizimi asosida musiqa ustozlari tomonidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi ko'plab asarlar ijod etilgani e'tiborga molikdir. Pirovardida esa o'zbek xalqi musiqa san'atining kelgusidagi rivojlanish istiqboli va asosiy tamoyillarini belgilab bergen bu davr mumtoz musiqa an'analari O'rta Osiyo va undan ham kengroq miqyosdagi mintaqaga xalqlarining madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, buyuk musiqachi va nazariyotchi olimlarning samarali faoliyati insoniyat madaniy tarixida o'chmas iz qoldirdi. Binobarin, olamshumul ahamiyat kasb etgan Temuriylar renessansi musiqa san'ati jahon tamaddunida yuksak qadrlanadi.

Kalit so'zlar: mumtoz, renessans, kuy, sozanda, ud, risola, qonun, aytim, cholg'u, shoir, miniatyura, usul.

Kirish

Temuriylar davri musiqa san'ati jahon tamaddunida yuqori baholanadi. Zero, ulug' Sohibqironga ergashgan Temuriy hukmdorlarning madaniy siyosatlari o'laroq musiqa san'ati gullab

¹Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti.

E-pochta: okilxoni@bk.ru

ORCID ID: 0000-0002-3118-2041

Iqtibos uchun: Ibrohimov, O. A. 2021. "Temuriylar renessansida musiqa san'ati". O'zbekiston: til va madaniyat 3: 91-101.

yashnadi, tarixda o'chmas iz qoldirgan ulug' maqom ustozlari va olimlari yetishib chiqdi, milliy va umuminsoniy g'oyalarni tarannum etuvchi ko'plab asarlar ijod etildi, saroy madaniyatida O'n ikki maqom tizimi ravnaq topdi. Bunda, eng avvalo, Amir Sohibqiron namunasi e'tiborlidir. Zero, musiqani teran anglagan Buyuk Sohibqiron san'atkorlarni qadrlagan, saroyda faoliyat ko'rsatayotgan musiqashunos olim, mashshoq va hofizlar barobarida turli tadbirlarga xorijiy mamlakatlardan taklif etilgan musiqa ustozlariga ham bag'ri kenglik namunalarini ko'rsatib, ularni, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar mudom e'zozlagan.

Inchunin, Amir Temur ishtirok etgan ommaviy tantana, to'y va boshqa bayram marosimlarida turli o'lkalarning musiqachilari ham o'z san'atlarini namoyish etishlari odat tusini olgan edi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida qayd qilinishicha: "Olamning turli tarafidan yig'ilgan tillari va kiyimlari bir-birlaridan farqli har qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning san'at ahllari-yu hunar sohiblari guruuh-guruuh bo'lishib har diyorning o'zida rasm va odat qilingan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlari, kiyim-kechak va matolari bilan yasanib, o'zlariga oro berdilar.

Xushnag'ma sozandalar va xushovoz xonandalar fors tariqasida, ajam tartibida, arab qoidasida, turk yo'sinida, mo'g'ul ayolg'usida, xitoy rusumida, oltoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va ohang bog'lamoq ila mashg'ul edilar" [Шомий 1996, 393]. Shunga yaqin ma'lumotlarni Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida ham ko'ramiz: "Yaxshi unluq mug'anniylar un tortib, g'azal-u naqsh aytur erdilar. Va turku, mo'g'ulu, xitoyu, arabu, ajamdin harkim o'z rasmi bilan nima aytur erdi. Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo'buz va yatug'on va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi" [Яздий 1997, 291].

Sohibqiron Amir Temurning hukmdorlik martabasida asos solingen madaniy an'analar uning vorislari - Shohrux Mirzo, Mironshoh, Xalil Sulton, Ulug'bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Husayn Boyqaro, Boysung'ur Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo kabi Temuriy hukmdorlar tomonidan munosib davom ettirilgan edi. Zero, ular ham ulug' Amir Sohibqironga izdoshlik qilgan holda saroya olim-u fuzalo, shoir-u san'atkorlarni jamlab, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun homiylikni o'z zimmalariga oldilar.

San'at ahliga mehr-muruvvat ko'rsatishda ulug' Sohibqironga ergashgan Temuriy hukmdorlarning madaniy siyosatlari o'laroq ulkan san'atkorlar yetishib chiqdi, musiqaning ijtimoiy-madaniy

ahamiyati benihoya yuksaldi, bastakorlik va ijrochilik sohalari yanada ravnaq topdi, musiqaning samo' mohiyatini anglash va qalban tinglash shakllari keng yoyila boshladi.

Yozma manbalarda bu davrning benazir musiqachilari – ijodkor va ijrochilar qatorida Ustod Qulmuhammad Udiy, Hoja Abdulloh Sadr, Ustod Sayyidahmad G'ijjakiy, Ustod Hasan Udiy, Ustod Husayniyi Kuchak Noiy, Hofiz Basir, Shayx Noyi, Xoja Abdullo Marvariy, Darvesh Shodiy, Mir Azu, G'ulom Shodiy, Pahlavon Muhammad Gushtigir, Mir Said Go'yanda, Xoja Shihobiddin, Qosimali Qonuniy, Xoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmol Udiy, Xoja Kamoliddin Husayn, Xoja Muhammad Marvarid, Xoja Yusuf Burhon, Abu Said Muhammad Rumiy va boshqa ko'plab namoyandalar zikr etiladi [Навоий 1966, 169-210; Восифий 1979; Бобур 2008; Семенов 1946, 55].

Manbalardan yana shunisi ayonki, o'sha davr musiqa ustozlari she'riyatdan, shoirlar esa musiqadan yaxshi xabardor bo'lganlar. Bu hol she'riyat va musiqaning egizak yanglig' mushtarak sifatlari, mumtoz jahbada esa, ko'p jihatdan umumiy aruz vaznlari bilan ham izohlanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, o'tmishdagi ko'pgina musiqachilar nazmiy ijod bilan bevosita shug'ullanganlar.

Bu haqda, ayniqsa, Hazrat Navoiyning "Majolisun-nafois", "Holoti Pahlavon Muhammad" va "Xamsatul-mutaxayyirin" asarlarda kelgan qisqa, lekin aniq nishonli muhim ma'lumotlar qimmatlidir. Jumladan, "Majolisun-nafois" tazkirasida shunday satrlarni o'qiyimiz: "Mavlono Sohib Balxiy bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O'z g'azallarini o'z amallariga bog'labdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, "Chahorgoh" amalidirkim, mashhurdur" [Навоий 1966, 85].

Bu kabi olidianob fazilatlar Hazrat Abdurahmon Jomiy hamda uning pir-u murshidligida Naqshbandiy suluki ila kamolot kasb etgan Mir Alisher Navoiyda ham mujassam edi: "Xoja Yusuf Burhon – Hazrati shayx ul-islomiy Ahmadi Jomiy (quddisa sirruhu)ning yaqinroq avlodidindur. Faqir va fano tariyqida suluk qilur erdi. Va tajarrud va inqito' rasmin ko'p masluk tutar erdi. Va jamei ahli turuqning sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko'proq o'z she'rig'a musiqiy bog'lar erdi" [Навоий 1966, 103].

Ulug' ustozlardan ta'lim-u tahsil olgan hamda ilmi advor ta'limotini mukammal o'zlashtirgan g'azal mulkining sultonini musiqa bobida ham samarali edi. Shu boisdan "ahli fazl va ahli hunarmand-

lareki Xurosonda bor erdi, hammalari Mir Alisherning sa'y va tarbiyati birla erdilar" [Аёзий 2011, 292]. Aynan Hazrati Navoiyning maslahati va malakali ko'rsatmalari asosida bir qator shoirlar ilmi musiqiyini jiddiy o'zlashtirgani ma'lum. Bunga shoir Kamoliddin Binoiy faoliyatini misol keltirish mumkin: "Mavlono Binoiy fazilatlari va uning ulug' Amir Alisher bilan zarofali musiqiy faniga ham mayl ko'rsatdi, uni o'rganib ko'p asarlar yozdi, advor (maqom ilmi – O.A.) haqida risola yozdi" [Босиғий 1979, 107].

O'sha davr aksariyat musiqachilari tasavvuf ta'limotidan ham bahra olgani yohud tariqat ahli bo'lgani e'tiborlidir. (Bunga, jumladan, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan tasvirlangan miniyatyuralardagi musiqachilarning belbog'i ham ramziy ishora etadi.). Aslida, ko'philik maqom ustozlarining axloq-u odob va iste'dod darajalari muayyan tariqat yo'l-yo'riqlari doirasida kamolot sari yuksalgan edi.

Zotan, tarixdan ma'lumki, ulug' bobomiz Amir Sohibqiron va uning vorislari bo'lgan Temuriylar davrida so'fiylik tariqatlari va ularning yo'lboschchilari hukmdor-u mardum orasida mo'tabar zotlar o'laroq e'zozlangan. Ayni vaqtida, suluk asoschilari, piru mashoyixlarining faoliyati ila shakllangan tasavvuf ta'limoti va unda ilgari surilgan insonparvarlik, bag'rikenglik, komillik sari ma'naviy yuksalish g'oyalari aksariyat olim-u fuzalo, hunarmand-u ijodkorlarning dasturilamali bo'lgan.

Hukmdorlar saroyida qariyb rasmiy mafkura nufuziga ega bo'lgan bu ta'limot¹ negizida she'riyat, me'morlik, amaliy va tasviriy san'at turlari qatorida mumtoz musiqa ham yangi sifat darajasiga ko'tarilgan edi. Bu jarayonga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaxslar qatorida "turli-tuman fazilatlar bo'yicha yetuk hunarmand, qori, shoir va xattot, musiqiy ilmida, ashula va torda davron saromadi va naqsh-u san'atda tengsiz bo'lgan" Xoja Abdulqodir Marog'iyning xizmatlarini alohida ta'kidlamoq kerak [Самарқандий 2008, 55]. Zero, benazir Xoja Abdulqodir Marog'iy boshchiligidagi olim va musiqa ustozlarining samarali ilmiy-ijodiy izlanishlari pirovardida komil inson g'oyalarni yaxlit ta'limot tarzida musiqada ifoda etish vazifasi O'n ikki maqom timsolida muvaffaqiyatli yechimini topgan. Shu asnoda maqom san'ati ulug' Sohibqiron asos solgan buyuk saltanatning ustuvor ma'naviy-mafkuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o'rinn olgan edi.

¹ Akademik Aziz Qayumovning ta'kidlashicha, Naqshbandiylik ta'limoti Temuriylar hukmronligi yillari davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan [Қаюмов 1993, 23].

Ulug' mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dahosi ila o'zbek mumtoz adabiyoti benihoya yuksalgan davr (XV asrning ikkinchi yarmi)ga kelib O'n ikki maqom tizimi kengroq madaniy hududda amaliy qo'llana boshlandi.

Mazkur tizim botinida kelgan ulug'vor g'oyalar Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan xos atama va istilohlar vositasida tarannum etilgan bo'lsa, maxsus risolalarda bitilgan ilmiy-nazariy asoslari musiqa amaliyotchilari uchun zarur ijodiy manba sifatida xizmat qilgan. Bu borada Mir Alisher Navoiy taklifi bilan yozilgan musiqaga oid ilmiy ishlardan, ayniqsa, Hazrati Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy" va Zaynulobidin Husayniyning "Qonuni ilmi va amaliy musiqiy" ("Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari") asarlari alohida muhim o'rIN tutgan.

Ulug' ustozlar – Safiuddin Urmaviy va Abdulqodir Marogg'iy larga munosib izdoshlikda yozilgan bu tadqiqotlarda O'n ikki maqom tizimi davr talabi kesimida ishonchli yoritilgan ediki, shu asnoda bu mumtoz san'atdan nafaqat saroy musiqachilar, balki madaniy markazlarda istiqomat qiluvchi boshqa musiqachilar ham bahramand bo'lganlar. Bunda musiqa tasnifotchisi ushbu tizimdan o'rIN olgan mukammal parda va kuy tuzilmalaridan andoza olib, ularni turli vazndagi usullarga ijodiy payvandlashi lozim bo'lgan. Badiiy naziraning musiqadagi bir ko'rinishi bo'lgan shu ijodiy an'ana o'laroq har bir bastakorning iste'dod darajasini in'ikos etuvchi ko'plab mumtoz asarlar ijod etilgan edi.

Shuningdek, tasavvuf ta'lomit va namoyandalarining sharofati ila musiqa mohiyatini teran anglash, tinglov jarayonida uning yoqimli (samo') nag'malarida zuhur etgan go'zallik jivalalariga ruhiy vajd holatida bog'lanish madaniyati keng yoyila boshlagan. Buni Zayniddin Vosifiyning "Badoye'ul vaqoye" sidan o'rIN olgan quyidagi tavsiflar mazmunidan ham anglash mumkin: "Kech kirishi bilan saboq va varaqlarda mashq qilishdan forig' bo'lib, sozandalar sozini chalish va navozanda mutriblar ijrosiga ergashishga harakat qilardi. Jonfido navolari va dilrabo nag'malari bilan changchi Zuhroni falakdan Yer tomon indira oladigan, tarabangiz kuylar ijrosi bilan benavo oshiqlar ko'zlaridan qo'shaloq buloq ocha oladigan mug'anniylar tabaqasi bilan suhbatlar qurardi... Toki musiqiy ilmida va advor fanida shunday joyga yetdilarki, nishot qo'zg'atuvchi zamzamasi xushovoz Nohidning qulog'ini chang go'shasidek burab qo'ya olardi. Turkona kuylaganda rudning quruq torlari dastidan aysh bulog'iga suv ochilardi, chashmining bir imosi bilan ming chashmani ochib yuborardi" [Восифий 1979, 69].

"Tarixi Rashidiy"da ham musiqachilar san'ati ulug'lanishini ko'ramiz: "Hofizi Basirki hofizlikda benazir erdi. Bog'larda bayt o'qusa bulbul va qumrilar, jonivorlar atrofig'a kelib eshitur erdi. Hofiz Hasan Ali Hofiz Basirning shogirdi erdi, nihoyate xushovoz erdi. Hofiz Hoji va Xoja Abdulla Marvorid qonunda misli yo'q erdi. Qonun bularning ixtiroidur. Bular bu toyifaning sardaftaridur" [Аёзий 2011, 291].

Sozanda va bastakor Abdullo Noyi o'zining Savtlari bilan Movarounnahr va Xurosonda mashhur bo'lgan. Ukasi Hofiz Qonuniy bilan jo'rnavozlik ham qilgan. Bunda e'tiborlisi shundaki, Abdullo Noyi nayda, ukasi Hofiz Qonuniy esa ashula aytish bilan bir vaqtida o'ng qo'lli bilan qonun chertib, chap qo'lli bilan doira ham chalgan. Aka-ukalarning bu tarzagi jo'rnavozligi shinavandalarni hayratda qoldirgan [Ўзбекистон миллий энциклопедияси 36].

Shoir-u san'atkorlarga rahnamolik qilgan aksariyat Temuriylarning o'zлари ham iste'dodli va salohiyatlari kishilardan edilar. Zotan, Temuriy shahzodalar bolaligidan musiqa ustozlaridan alohida saboq olganlar, Sharq mumtoz she'riyati va uning poydevori bo'lgan aruz ilmini o'rganish asnosida fors tilini ham puxta o'zlashtirganlar. Bejiz emaski, Amir Temur va Temuriylar o'zining yuqori madaniyat darajasi, lison boyligi, aksariyati esa aruz vazni bilan forsiy va turkiyda she'rlar bitgani bilan ham jahon tamaddunida alohida e'tiborga sazovor. Bu borada Navoiyning "Majolisun-nafois", "Holoti Pahlavon Muhammad" va "Xamsatul-mutaxayyirin" asarlari da keltirilgan qisqa, lekin aniq nishonli ma'lumotlar qimmatlidir.

Jumladan, Mironshohning o'g'li Xalil Sulton (1384 - 1411) Samarqand taxtida sultanat qilgan paytida (1405 - 1409) "zurafo va shuar o'marlisida jam' bo'lurlar erdi. Mashhurdurkim, o'zi she'r aytur erdi" [Навоий 1966, 170]. Shohruhning o'g'li Ulug'bek Muhammad Tarag'ayning (1394-1449) "kamolati bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyoziyni xo'b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va holo aning ziji oroda shoe'dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg'a mayl qilur" [Навоий 1966, 171].

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek musiqa ilmi va amaliyoti bilan ham yaqindan shug'ullangan, musiqa ilmiga doir risola ham yozgan [Трактат о музыке, 152]. Donishmand podshoh Samarqanddan turib Movarounnahrni boshqargan yillari (1409-1449) ilm-fan va san'at jabhalari jadal rivojlangan edi.

Umarshayx Mirzoning evarasi Sulton Husayn Boyqaro (1438-1506) Xuroson hukmdori bo'lgan yillari (1469-1506) esa Hirot madaniyati ham anchagina yuksalib, adabiyot, me'morlik, tasviriy

va amaliy-bezak san'atlari qatorida musiqa ilmi va amaliyotida ham ijobjiy yutuqlar qo'lga kiritilgan edi. Husayn Boyqaro "Husayniy" taxallusi bilan she'rlar yozgan, musiqadan Xoja Yusuf Andijoniyidan mukammal tahsil olib, musiqa amaliyotiga o'zi ijod etgan 17ta usulni joriy etgan [Трактат о музыке, 13-14; Мажолисун-нафоис, 178-210]. Ayni vaqtida uning homiyligi va do'sti Alisher Navoiy bilan rahnamoligida ko'plab shoir va turli san'at sohiblari yetishib chiq-qanligi tahsinga sazovordir.

Abu Sayidning o'g'li Umarshayx Mirzo (1456-1494) Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan Aksi davlatiga hukmdor bo'lgan yillari (1462-1494) poytaxt Axsikent shahrida "hunarmandchilik, me'morchilik, xattotlik va ilm-fan rivojiga katta e'tibor berdi. Shoir va san'atkorlarning faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratib berdi. Tabiiyki, yaratilgan sharoitlar o'la-roq bu zaminda qator san'atkorlar yetishib chiqqan edi" [Турғунова 2016, 38].

Umarshayx Mirzoning vafotidan so'ng bu davlatga hukmron bo'lgan uning o'g'li Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 - 1530) otasi olib borgan madaniy siyosatni davom ettirdi. Ayni vaqtida Bobur Mirzo she'riyat bilan birga musiqa san'atida ham o'z iste'dodini namoyon etib turgan. Jumladan, maqom yo'lida "Savti Chor-goh" asarini ijod etganligi hamda musiqa ilmiga doir risola bitgani yozma manbalardan ayon [Бобур 2008; Трактат о музыке, 152].

Xulosa

Xulosa o'rinda aytish joizki, Sohibqiron Amir Temurning amaliy sa'y-harakati bilan Samarqand saroyida qaror topgan ilg'or musiqiy an'analar uning vorislari bo'lgan Temuriy hukmdorlar (Shohrux Mirzo, Mironshoh, Xalil Sulton, Ulug'bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Husayn Boyqaro, Boysung'ur Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo va b.) tomonidan munosib davom ettirildi. Ularning olimu fuzalo, shoir-u san'atkorlarga ko'rsatgan homiyliklari ham bois ilm-fan rivojlandi, musiqiy ijodkorlik va ijrochilik sohalari ravnaq topdi. Bu davrda qaror topgan mumtoz musiqiy an'analar o'zbek milliy musiqa san'atining keyinigi asrlardagi rivojida ko'p jihatdan muhim zamin bo'ldi. Qolaversa, Temuriylar davri samo'si, eng avvalo, musiqaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati yuksalganligi, xalq va kasbiy ijodiyot qatlamlari rivojlanganligi, aytim janrlari ortganligi, cholg'ular bisyorligi va ularda ijrochilikning xilma-xil shakllari yuzaga kelganligi kabilar bilan jahon musiqa tarixida alohida nufuzli o'rinda turadi.

Ayni vaqtida davr allomalarining ilmiy meroslari ham bugungi kunda mudom mutaxassislarining diqqat markazida. Xususan, Xoja Abdulqodir Marog‘iyning Eron, Turkiya, Angliya va Gollandiya davlatlarining nufuzli kutubxonalarida saqlanayotgan musiqashunoslikka oid risolalaridan “Maqosidul-alhon” (“Kuylarning o‘rni”) va “Jami‘ul-alhon” (“Kuylar to‘plami”) nomli shoh asarlari Tehronda nashr etildi (1965, 1987). Shuningdek, ozarbayjonlik musiqashunos Surayyo Agayeva “Abdulqodir Marog‘iy va uning musiqiy-nazariy merosi”, o‘zbekistonlik olim Nafas Shodmonov “Xoja Abdulqodir Marog‘iy” nomlarida yirik tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar [Агаева 1979; 1980, 243-260; Шодмонов 2000].

Hazrat Abdurahmon Jomliyning forsiyda bitilgan “Risolai musiqiy” qo‘lyozma nusxalari bugungi kunda Toshkent, Dushanbe, Boku va Sankt-Peterburg kutubxonalarida saqlanmoqda. Uning O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar zaxirasi-dagi noyob nusxasi (inv. № 1331/XI) dastlab A.N.Boldirev tomonidan rus tiliga tarjima qilingan hamda V.M.Belyaevning musiqashunoslik sharhlari bilan 1960-yili chop etilgan edi [Джами 1960].

Ushbu risola 1997-yili Nafas Shodmonovning o‘zbek tiliga tarjimasi asosida nashr yuzini ko‘rdi [Жомий 1997], 2019-yili esa maqomshunos Asliddin Nizomiyning sa‘y-harakati ila Tojikistonda ham chop etildi [Низомий 2019]. Mazkur nashrda “Risolai musiqiy”ning Toshkentdagи Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozma fotonusxasi hamda alloma shoirning g‘azaliyot va dostonlaridan musiqaga oid qimmatli namunalar keltirilgan.

Zaynulobidin Husayniyning “Qonuni ilmi va amaliy musiqiy”si [O‘zR FAShI inv № 42] 1944-yili professor A.A.Semyonov tomonidan forschadan rus tiliga ayrim izohlar bilan erkin tarjima qilingan [O‘zR FA San‘atshunoslik instituti kutubxonasi. MP № 240 X-38]. 1987-yili Askarali Rajabov “Qonun”ni Tojikistonda chop ettirdi [Хусейни 1987]. Bu nashrda qo‘lyozmaning faksimilesi, A.A.Semyonovning rus tilidagi qo‘lyozma tarjimasi hamda Askarali Rajabovning mavzuga oid tadqiqoti o‘z aksini topgan. Shuningdek, Zaynulobidin Husayniyning “Qonuni ilmi va amaliy musiqiy” asari ga atoqli maqomshunos Is’hoq Rajabov, manbashunos Zokirjon Oripov va boshqa o‘zbek olimlari tomonidan atroflicha tavsif berilgan [Раджабов 2020; Иброхимов, Орипов 2016; Юсупова, Ахралова 1992, 158 – 163]. Ayni vaqtida shu kabi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish dolzarb vazifalardandir.

Adabiyotlar

- Агаева, С. 1980. "Из истории музыкальной культуры Азербайджана. (Абдулгадир Мараги)". *Музыка народов Азии и Африки*, 243-260. Вып. 3. Москва: Сов. Композитор.
- Агаева, Сурая Хусров кызы. 1979. *Абдулгадир Мараги и его музыкально-теоретическое наследие (XIV-XV вв.): дис. канд. искусствоведения*. Баку Москва.: Научно-исследовательский институт искусствознания.
- Аёзий, Мирзо Мухаммад Хайдар. 2011. *Тарихи Рашидий*. Тошкент: O'zbekiston.
- Алишер Навоий. 1966. *Мажолисун-нафоис*. Асарлар. 12 т. Тошкент.
- Бобур, З.М. 2008. *Бобурнома*. Тошкент, Ўқитувчи.
- Восифий, Зайниддин. 1979. *Бадоеъул вақоғеъ*. Форсийдан Наим Норкулов таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Джами, Абдурахман. 1960. *Трактат о музыке*. Тошкент: АН УзССР.
- Жомий, Абдураҳмон. 1997. *Рисола-иҳи мусиқий*. Форс тилидан Нафас Шодмон таржимаси, Алибек Рустамий таҳрири остида. Тошкент.
- Жомий, Абдураҳмон. *Рисолаи мусиқий*. Қўлёзма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. инв. № 42.
- Иброҳимов, О., Орипов, З. 2016. *X-XVII асрлар ўзбек мумтоз мусиқаси*. Қўлёзма. ЎзР ФА Санъатшунослик институти кутубхонаси, инв. № 8014.
- Қаюмов, А. 1993. *Бу оҳанг ила бўлғасен нақшбанд*. Тошкент.
- Низомий, Аслиддин. 2019. *Абдурраҳмони Жомий ва илми мусиқий*. Душанбе.
- Раджабов, И.Р. 2020. *Трактаты о музыке* (Из собрания восточных рукописей АН РУз.). Тошкент.
- Самарқандий, Абдураззоқ. 2008. *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн*. II жилд. Тошкент: O'zbekiston.
- Семенов, А.А. 1946. *Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века)*. Тошкент.
- Турғунова, Н. 2016. Фарғона водийси яллачилик санъати. Наманган. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. www.ziyouz.com кутубхонаси.
- Хусейни, З.М. 1987. *Канон теории и практической музыки*. Подготовка, исследование, факсимиле рукописи и примечания А. Раджабова, с приложением русского перевода А.А. Семенова (на таджикском, русском языках, арабская графика). Душанбе: Дониш.
- Чанги, Дарвиш Али. 1989. *Трактат о музыке*. Рукопись. Перев. с перс. Д.Рашидовой. Ташкент. Биб-ка Института искусствознания АН РУз. Инв. № 879.
- Шодмонов, Нафас. 2000. *Хожа Абдулқодир Марғий*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Шомий, Низомиддин. 1996. Зафарнома. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Юсупова, Д.Ю., Ахралова, Р. 1992. "Рукописные источники по музы-

кальному искусству в фондах института востоковедения и института рукописей". *Музыкальное, театральное искусство и фольклор*, 158 – 163. Тошкент: Фан.

Яздий, Шарафуддин Али. 1997. *Зафарнома*. Тошкент, Шарқ. جیط التواریخ کیلے‌زمہ شارکشونوسليک انسٹیتوبتى كىتىبхонаسى. № 835, II – жилд.

Musical art of the Timurid Renaissance

Oqilkhon Ibrohimov¹

Abstract

The advanced musical traditions that developed during the reign of the great Amir Temur were perceived by his successors-rulers as symbols of classical art and were adequately continued in their palaces. Thanks to the favorable conditions created by them, the comprehensive support of scientists and art workers, during this period science flourishes, important socio-cultural progress in the field of music takes place, professional creativity and performing arts reach a qualitatively new level of development.

